


**Farg‘ona viloyatida
nominal hisoblangan o‘rtacha oylik ish haqi**
2025-yil yanvar-iyun oylari uchun (dastlabki ma‘lumotlar)

- I. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yillar bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi.
- II. Shahar va tumanlar bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal ish haqi.
- III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.
- IV. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha dinamikasi.
- V. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar.

**I. O‘rtacha oylik nominal hisoblangan
ish haqining yillar bo‘yicha o‘zgarishi dinamikasi**

Farg‘ona viloyatida 2025- yil yanvar-iyun oylarida o‘rtacha oylik ish haqi 4 443,8 ming so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga o‘sgan.

Yillar kesimda o‘rtacha oylik ish haqi, ming so‘m



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha o‘rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(yillik\)](#)

[O‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(choraklik\)](#)

[O‘rtacha hisoblangan oylik ish haqi \(yillik\)](#)

II. Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori

Shahar va tumanlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori to'g'risidagi ma'lumotlar 2025- yilning yanvar-iyun oylari uchun keltirilgan bo'lib, 2024- yilning mos davri bilan taqqoslangan.

	Ming so'm	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	4 443,8	116,9
Farg'ona shahri	5 796,0	111,6
Qo'qon shahri	4 703,3	109,5
Quvasoy shahri	4 366,0	109,5
Marg'ilon shahri	3 716,8	117,9
<i>tumanlar:</i>		
Oltiariq	3 383,2	116,1
Qo'shtepa	3 929,2	120,1
Bag'dod	3 414,6	111,8
Buvayda	4 155,6	139,4
Beshariq	3 699,4	135,0
Quva	3 405,0	123,0
Uchko'prik	3 849,6	110,4
Rishton	3 889,3	134,8
So'x	3 598,0	113,7
Toshloq	5 030,6	120,9
O'zbekiston	3 641,2	117,2
Farg'ona t.	3 408,4	122,6
Dang'ara	3 660,6	119,7
Furqat	3 763,2	125,2
Yozyovon	3 670,7	118,3

Shahar va tumanlar kesimida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqlari Buvayda tumanida 4 155,6 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 139,4% ga o'sganligi kuzatildi.

Shuningdek, bu ko'rsatkich Beshariq tumanida 3 699,4 ming so'mni (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 135,0%), Rishton tumanida 3 889,3 ming so'mni (134,8%) tashkil etgan.

O'z o'rnida, o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi Furqat tumanida 3 763,2 ming so'm (125,2%), Quva tumanida 3 405,0 ming so'mni (123,0%), Farg'ona tumanida 3 408,4 ming so'mni (122,6%), Toshloq tumanida 5 030,6 ming so'mni (120,9%), Qo'shtepa tumanida 3 929,2 ming so'mni (120,1%), Dang'ara tumanida 3 660,6 ming so'mni (119,7%), Yozyovon tumanida 3 670,7 ming so'mni (118,3%), Marg'ilon shahrida 3 716,8 ming so'mni (117,9%), O'zbekiston tumanida 3 641,2 ming so'mni (117,2%), Oltiariq tumanida 3 383,2 ming so'mni (116,1%), So'x tumanida 3 598,0 ming so'mni (113,7 %), Bag'dod tumanida 3 414,6 ming so'mni (111,8%), Farg'ona shahrida 5 796,0 ming so'mni (111,6%), Uchko'prik tumanida 3 849,6 ming so'mni (110,4%), Qo'qon shahrida 4 703,3 ming so'mni (109,5%), Quvasoy shahrida 4 366,0 ming so'mni (109,5 %) tashkil etib, boshqa shahar va tumanlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

III. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal ish haqi miqdori haqida ma'lumotlar 2025- yilning yanvar–iyun oylariga oid bo'lib, 2024- yilning mos davriga nisbatan taqqoslangan. Bu taqqoslash orqali sohalar kesimida farqlar va o'zgarishlar tahlil qilindi.

Iqtisodiy faoliyat turi nomi	Ming so'm	O'sish sur'ati, %da
Sanoat	5 013,4	113,3
Qurilish	3 028,0	85,3
Savdo	4 333,4	100,7
Tashish va saqlash	6 535,3	114,3
Yashash va ovqatlanish	2 535,4	61,9
Axborot va aloqa	8 584,3	110,7
Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida	10 499,1	111,1
Ta'lim	3 837,5	123,0
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3 677,9	112,6
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	4 658,8	115,8
O'rtacha	4 443,8	116,9

O'rtacha oylik nominal ish haqi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganida eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasida qayd etilganligi, xususan, bu sohada 2024- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 23,0 % ni, ish haqi miqdori esa 3 837,5 ming so'mga yetganligi kuzatildi.

Shuningdek, san'at, ko'ngil ochish va dam olish yo'nalishida ham sezilarli o'sish sur'ati kuzatilib, ish haqi miqdori 4 658,8 ming so'mni tashkil etib, o'sish 15,8 % ga, tashish va saqlash faoliyati sohasida ish haqi miqdori 6 535,3 ming so'mni tashkil etib, 14,3 % ga, sanoat ish haqi miqdori 5 013,4 ming so'mni, 13,3 % ga, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish ish haqi miqdori 3 677,9 ming so'mni tashkil etib, 12,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Shu bilan birga, o'rtacha oylik nominal ish haqi bank, sug'urta faoliyati sohasi bo'yicha esa 10 499,1 ming so'mni tashkil etib 11,1 % ga, axborot va aloqa sohasida 8 584,3 ming so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 10,7 % ga, savdo sohasida 4 333,4 ming so'm ni tashkil etib, 0,7 % ga, o'sgan bo'lsada boshqa tarmoqlarga nisbatan o'sish sur'ati pastroq ekanligi kuzatildi.

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

IV. O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha dinamikasi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdorining so'nggi besh yildagi o'zgarishi tahlil etilganida, 2025- yilning 2-choragida bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida ish haqi miqdori 10 499,1 ming so'mni tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 5 806,1 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


Shuningdek, so'nggi besh yilda axborot va aloqa sohasi bo'yicha ish haqi miqdori 8 584,3 ming so'mga, tashish va saqlash sohasida 6 535,3 ming so'mga, sanoat sohasida 5 013,4 ming so'mga, qurilish sohasida 3 028,0 ming so'mga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish sohasida 4 658,8 ming so'mga ko'payganligi kuzatildi.

O'rtacha oylik ish haqining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Sanoat sohasida o'rtacha oylik ish haqi 5 013,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida 7 324,3 ming so'm, ishlab chiqarish sanoati sohasida 4 682,5 ming so'm, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida 3 993,5 ming so'm ekanligi kuzatildi.

Sanoat sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Savdo sohasida o'rtacha oylik ish haqi 4 333,4 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash tarmog'i 4 300,2 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari ulgurji savdo 3 679,9 ming so'mni, avtomobil va mototsikllarning savdosidan tashqari chakana savdo sohasi 4 470,2 ming so'mni tashkil etgan.

Savdo sohasida ish haqi miqdorining o'zgarish dinamikasi, ming so'm




Tashish va saqlash sohasida o'rtacha oylik ish haqi 6 535,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi miqdori ombor xo'jaligi va yordamchi transport 6 680,3 ming so'mni, quruqlikdagi va quvur transporti 6 910,9 ming so'mni, pochta va kuryerlik faoliyati sohasida 3 146,3 ming so'mni tashkil etgan.

Tashish va saqlash sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Axborot va aloqa sohasida o'rtacha oylik ish haqi 8 584,3 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning ayrim sohalari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar sohasida 8 243,5 ming so'mni, aloqa sohasi 9 241,3 ming so'mni tashkil etgan.

Axborot va aloqa sohasida ish haqi o'zgarishi dinamikasi, ming so'm




Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik sohasida o'rtacha oylik ish haqi 10 499,1 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi majburiy ijtimoiy sug'urtalashdan tashqari, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari sohasi 15 775,1 ming so'mni, moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat 3 512,1 ming so'mni, sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar sohasida 10 367,7 ming so'mni tashkil etgan.

Bank, sug'urta sohasida o'rtacha oylik ish haqi,
ming so'm



Ta'lim sohasining asosiy tarmoqlari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi, *ming so'm*

Ta'lim sohasida o'rtacha oylik ish haqi 3 837,5 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, uning tarkibi bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi oliy ta'lim sohasida 8 859,6 ming so'mni, texnik va professional ta'lim 4 177,1 ming so'mni, umumiy o'rta ta'lim 4 197,0 ming so'm, maktabgacha ta'lim sohasi 2 269,5 ming so'mni tashkil etgan.



Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi \(choraklik\)](#)

V.O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar.

Farg'ona viloyati bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar korxonalar va tashkilotlar tomonidan elektron shaklda, onlayn tarzda taqdim etilgan statistika hisobotlari ma'lumotlari asosida kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi korxonalarisiz shakllantirilgan.

Viloyatning barcha korxonalar va tashkilotlari, jumladan kichik korxonalar, mikrofirmalar, fermer xo'jaliklari bo'yicha o'rtacha oylik ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar yilda bir marotaba shakllantirilib, e'lon qilinadi.

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 7-apreldagi PF-4609-son Farmoniga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlari va fermer xo'jaliklari statistika hisobotlarini statistika idoralariga yilda bir marotaba taqdim etishi belgilangan.

Nominal hisoblangan ish haqi – ma'lum bir davr (soat, oy, yil) mobaynida xodim tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmat) evaziga ish beruvchilar tomonidan, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda soliq va boshqa to'lovlarni o'z ichiga oluvchi yollanma xodimning mehnatiga haq to'lash tarzida jismoniy shaxsga pul shaklida hisoblangan daromadlardan iborat.

Hisobot oyi uchun nominal hisoblangan ish haqi quyidagicha hisoblanadi:

$$W_n = \frac{F}{L}$$

bunda:

W_n – nominal hisoblangan ish haqi;

F – hisobot oyi uchun jismoniy shaxslarga hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar;

L – hisobot oyi uchun xodimlarning o'rtacha soni;

Nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqini hisoblash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining 2024-yil 31-maydagi 122-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Iqtisodiyotda ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga muvofiq amalga oshiriladi.

Metama'lumot uchun havola:

[Iqtisodiyot bo'yicha ish haqi miqdorini baholash bo'yicha uslubiy nizom](#)

